

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA LIZING SHARTNOMASINING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI VA UNING IQTISODIY AHAMIYATI”

Termiz davlat universiteti
Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi
Samadova Shohida Nabijon qizi

“Kapitalning eng samarali qo‘llanilishi – bu uni ishlab chiqarishni rivojlantiradigan vositalarga yo‘naltirishdir.”

— Adam Smit

Annotatsiya: *Mazkur maqolada lizing shartnomasining huquqiy mohiyati, uning fuqarolik-huquqiy munosabatlar tizimidagi o‘rni hamda iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Lizing shartnomasi tushunchasi, uning asosiy elementlari, taraflarning huquq va majburiyatlari hamda lizing munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida lizing tizimini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Xorijiy davlatlar tajribasi asosida lizing tizimini takomillashtirishning samarali mexanizmlari tahlil qilinib, ilmiy xulosalar va takliflar berilgan. Maqolada lizing shartnomasi investitsiya jarayonlarini faollashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning muhim huquqiy vositasi sifatida asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *lizing shartnomasi, moliyaviy lizing, fuqarolik huquqi, investitsiya, iqtisodiy munosabatlar, lizing beruvchi, lizing oluvchi, huquqiy tartibga solish, tadbirkorlik, xalqaro tajriba, modernizatsiya, iqtisodiy rivojlanish.*

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida investitsiya faoliyatini rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadlarga erishishda moliyaviy vositalardan samarali foydalanish zarur. Shunday vositalardan biri lizing shartnomasi hisoblanadi.

Lizing shartnomasi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi muhim huquqiy mexanizmdir. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi sharoitida lizing shartnomasi muqobil moliyalashtirish manbai sifatida katta ahamiyatga ega. Lizing shartnomasining shakllanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Lizing shartnomasi haqidagi dastlabki tushunchalar Eramizdan avv.2000-yillarda qadimgi Ur shahrida loydan yasalgan taxtachalarda qishloq xo‘jaligi anjomlari, yerlar, suv omborlari, yirik shoxli qoramol va boshqa hayvonlarning ijaraga berilganligi to‘g‘risida yozuvlar mavjud. Eramizdan avv.1750-yilda Bobil qiroli Xammurapi tomonidan ishlab chiqilgan qonunchilikda ijara bitimlariga bag‘ishlangan nizomlar, eramizdan avv. 4asrda Arastu o‘zining bitiklarida ,,

Lizingning asosiy g'oyasi bu boylikka egalik qilishda emas, balki undan foydalanishda" degan fikr keltirgan, 1066yilda Vilgelm Angliya qirg'oqlaridan qo'shinini o'tkazish uchun nomanlik sudxo'rlardan kemalarni ijaraga olib turgan bu birinchi rasmiy hujjatlashtirilgan lizing bitimi hisoblanadi. Lizing shartnomaning vaqt sayin rivojlanishi natijasida 1952-yilda San-Fransiskoda dunyodagi birinchi AQSH lizing korporatsiyasi vujudga kelgan.¹

Lizing shartnomasi O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqida mustaqil shartnoma turi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 3-kichik bobi, 34-bo'lim, 6-paragraf, 587-599-moddalarida „Lizing shartnoma“ning huquqiy tabiati yoritilgan. Unga ko'ra Lizing shartnomasi bo'yicha bir taraf lizing beruvchi ya'ni ijaraga beruvchi bir taraf lizing oluvchi (ijaraga oluvchi) ikkinchi tarafning topshirig'iga ko'ra sotuvchi uchinchi taraf bilan undan lizing oluvchi uchun mol-mulk sotib olish haqida kelishish majburiyatini oladi, lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to'lovlarini to'lash majburiyatini oladi. Qonunchiligimizga ko'ra iste'mol qilinmaydigan, tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan har qanday ashyolar lizing obyekti sifatida qabul qilinadi. Ammo, yer uchastlari va tabiat obyektlari lizing obyekti sifatida e'tirof etilmaydi. Lizing shartnomasiga asosan, keyinchalik lizing oluvchiga lizing bo'yicha topshirish maqsadida mol-mulkni o'ziga mulk qilib oluvchi shaxs lizing beruvchi hisoblanadi. Lizing shartnomasiga ko'ra lizing to'lovi lizing beruvchiga lizing obyekti qiymatining lizing oluvchi tomonidan qoplanishidan va lizing beruvchining foizli daromadidan iborat bo'ladi. Shartnomaga asosan lizing obyekti lizing oluvchiga belgilangan muddat ichida u turgan joyda sotuvchi tomonidan topshirishi lozim. Agarda belgilangan muddat ichida lizing obyekti topshirilmagan va bu sababli lizing beruvchi javobgar bo'ladigan muddatlar o'tkazib yuborilgan taqdirda lizing oluvchi shartnomani bekor qilishni talab qilib chiqishi va yuz bergan zararni qoplashni talab qilishga haqli. Lizing shartnomasiga ko'ra mol-mulk yetkazib berilmagan, to'liq yetkazib berilmagan, muddati kechiktirib yetkazib yetkazib berilgan yoxud uning sifati tegishli darajaga javob bermagan taqdirda lizing oluvchi: lizing to'lovlarini to'xtatib turish, yetkazib berilayotgan mol-mulkni rad etish va lizing shartnomasini bekor qilishni talab qilishga haqli. Agar lizing shartnomasi muddatidan avval bekor qilinadigan bo'lsa, lizing oluvchi ilgari bo'nak sifatida to'lagan pullarini, obyektidan foydalanishdan olgan foydaning qiymatini chegirib tashlab, o'ziga qaytarib berishni talab qilishga haqli. Lizing shartnomasi: mulkiy munosabatlarni tartibga soladi, haq evaziga tuziladi, muddatli shartnoma kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Lizing shartnomasi uch tomonlama huquqiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bular lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchidir. Ushbu munosabatlar o'zaro bog'liq bo'lib, har bir tomon o'z huquq va majburiyatlariga ega. Huquqiy jihatdan lizing shartnomasi ijara shartnomasiga o'xshash bo'lsa-da, undan farqli ravishda lizing beruvchi mol-mulkni maxsus lizing oluvchi uchun sotib oladi.

Lizing shartnomasi bo'yicha O'zbekistonda to'lovlar bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

1. Dastlabki to'lov- bu odatda tovaning sotib olish narxining 20-30%ni tashlik qiladi.

¹ <https://finlit.uz/uz/articles/credit/what-is-leasing/>

2. Oylik to'lovlar . Oylik to'lovlarning o'zi ham 2guruhga bo'linadi: annuitet va regressive.

Annuitet to'lov- butun muddat davomida bir xil miqdorda oylik to'lovlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Regressiv to'lov- birinchi oyda kelishilgan to'lovning katta qismini to'lab, qolgan oylarda esa kam miqdorda amalga oshirish tushuniladi.

Hozirgi kunda lizing shartnomasi iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, lizing tadbirkorlarga katta miqdordagi mablag' sarflamasdan turib ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish imkonini beradi. Bu ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlari uchun muhimdir.

Ikkinchidan, lizing ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshadi.

Uchinchidan, lizing investitsiyalarni jalb qilishning samarali vositasi hisoblanadi. Bu esa iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam beradi.

To'rtinchidan, lizing yangi ish o'rinlari yaratishga yordam beradi va aholi bandligini oshiradi.

Beshinchidan, lizing iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.²

O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida lizing tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida lizing munosabatlari bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan:1999-yil 14-aprel 756-1-son „ Lizing to'g'risida”gi O'zbekiston respublikasi qonuni,2015-yil 27-noyabr 289-son „Lizing munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik normalarini iqtisodiy sudlar tomonidan qo'llanilishining ayrim masalalari haqida” O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik Sudi Plenumining qarori qabul qilingan.

So'nggi yillarda lizing tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar ushbu sohaning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga amaliyotda lizing munosabatlari bilan bog'liq ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan: lizing xizmatlari haqida ma'lumotlarning yetarli emasligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, huquqiy mexanizmlarning yetarlicha takomillashmaganligi, lizing xizmatlarining keng tarqalmaganligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish lizing tizimini rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlarda lizing iqtisodiy rivojlanishning muhim vositasi hisoblanadi. Xususan, AQSH, Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarda lizing keng qo'llaniladi.Germaniya davlati asosida lizing shartnomasini ko'rib chiqamiz. Germaniya lizing bozori rivojlangan eng

² <https://www.cbbh.ba/press/edukacija/688>

rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Bundesverband Deutscher Leasing-Unternehmen (BDL) tashkiloti lizing borozini muvofiqlashtiruvchi asosiy tashkilot hisoblanadi. Ushbu tashkilotning ma'lumotlariga ko'ra Germaniya investitsiyalarning sezilarli qismi lizing orqali moliyalashtiriladi. Ayniqsa kichik va o'rta biznes sektori uchun lizing asosiy investitsiya manbalaridan biri hisoblanib, avtomobil, sanoat uskunalari, IT texnologiyalar va tibbiy jihozlar lizingning asosiy segmentlarini tashkil etadi. Lizing shartnomalari odatda qisqa muddatli (2-2yil), o'rta muddatli (3-5yil), uzoq muddatli (5-10yil) muddatlarda tuziladi. Eng keng tarqalgan lizing turlarini operativ lizing, moliyaviy lizing, qoldiq qiymatli lizing va to'liq xizmatli lizing tashkil etadi.

Germaniyada lizing shartnomasining elektronlantirish bosqichi 2014-yil 23-iyulda Yevropa Ittifoqining eIDAS reglamenti qabul qilinishi bilan sodir bo'ldi.³

Raqamlashtirish natijasida investitsiya jarayoni tezlashdi, kichik biznes lizingdan ko'proq foydalana boshladi, avtomobil bozori va texnika bozori savdosi oshdi, moliyaviy xizmatlar sektori raqobatbardosh bo'ldi.

Germaniya tajribasi asosida lizing shartnomasi munosabatlari jarayonlarini raqamlashtirish ishlari amalga oshirilganda, shartnoma tuzish bilan bog'liq o'vrogarchiliklar bartaraf etiladi va jarayon soddalashadi. Bu esa lizing shartnomasining rivojlanishi va iqtisodiyot uchun foydali bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, lizing shartnomasi fuqarolik huquqining muhim institutlaridan biri hisoblanadi. U iqtisodiy rivojlanish, investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Lizing tizimini rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli ushbu sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.cbbh.ba/press/edukacija>
2. <https://chambers.com/articles/what-is-leasing>
3. chambers.com
4. <https://www.cbbh.ba/press/edukacija>
5. cbbh.ba
6. <https://taf.co.id/en/article/leasing>
7. taf.co.id
8. bdo.com.pe
9. <https://cleartax.in/g/terms/lease>
10. <https://eskhata-leasing.uz/leasing/about>
11. eskhata-leasing.uz

³ https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/ALL/?uri=celex:32014R0910&utm_source

- 12.** <https://www.garantbank.uz/uz/lizing-garant-lizing>
- 13.** new.garantbank.uz
- 14.** chambers.com
- 15.** <https://lex.uz/docs/-180552#-186416>
- 16.** <https://finlit.uz/uz/articles/credit/what-is-leasing>